

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TADQIQIY BILISH VA  
SAMARALI REFLEKSIV FAOLIYAT TAHLILI

*Raxmonova Shoxsanam Baxtiyor qizi*

*Marg'ilon Pedagogika kolleji*

*“Maktabgacha ta'lim pedagogika va psixologiya”  
kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli yosh guruhlarida tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyat tahlillari haqida va MTTlarda shu bo'yicha olib borilayotgan tashkiliy jarayonlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'z:** MTT, yoshlar, guruhlar, tadqiqiy faoliyat, refleksiv faoliyat, tahlil.

**Annotation:** This article talks about the analysis of research knowledge and effective reflexive activity in preschool educational organizations in different age groups and about the organizational processes carried out in this regard in MTTs.

**Key word:** Preschool education organization, youth, groups, research activity, reflexive activity, analysis.

**Аннотация:** В данной статье говорится об анализе исследовательского познания и эффективной рефлексивной деятельности в дошкольных образовательных организациях в разных возрастных группах и об организационных процессах, проводимых в связи с этим в МТЦ.

**Ключевые слова:** Организация дошкольного образования, молодежь, группы, исследовательская деятельность, рефлексивная деятельность, анализ.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Maktabgacha ta'limning maqsadi –bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta'lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasasiga biriktirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta'lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta'lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta'lim muassasasida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar

“Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog’lig’ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to’g’risida nizom” bilan tartibga solinadi.

Davlat talablaridan [tadqiqiy bilish va samarali](#) reflektiv faoliyatni kichik sohasini o’rganish asosiy omillardandir. "Ilk qadam" [davlat dasturida](#) turli yosh guruhlarida ilm fan va tabiat markazini o’rganish [va loyihalash](#), kartoteka tuzish faoliyatlari olib borilgan.

Quyidagi jarayonlar tadqiqiy bilish va samarali reflektiv faoliyatni asoslaridandir:

- Katta va tayyorlov [guruhlarda bolalarni fikrlash](#), o’z-o’zini kuzatish, [tushunish](#), o’z ishining shartlari va natijalarini baholash qobiliyatini rivojlantirish, mehnat ko’nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish.
- Faoliyatni boshlashga muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish. Shu tarzda yechim izlashda guruhning birdamligi hissi paydo bo’ladi, mavjud vaziyatni tahlil qilishda aqliy qobiliyat faollashtirish.
- MTTda kognitiv [tadqiqotlarni tashkil etish](#).
- Bolalar uchun qiziqarli tajriba va eksperimentlar: Maks Lusher rangining o’ziga xos xususiyati, "Quyosh", « "Archa- kayfiyati daraxti", «Nishon», «Pantomima», "Idishdagi murabbo", refleksivekrani: "Svetofor", "Quyosh va bulutlar" "Odamlar" kayfiyat ekrani:kayfiyat belgilaridan foydalanish (kulgilar, [yulduzcha](#), bayroqlar ...); (gul barglari, shar, lupa, [kattalashtiruvchi oyna](#), suv shag’ami, siyoh, olov-havoni buzadi, uzumdan, [tuxumdan suv osti kemasi](#), qattiq va yumshoq narsalar) havo, suv, tuz, qum va loy, jonsiz predmetlar (shar, yelpig’ich, oyna, baklajka), o’simliklar, turli materiallar (oyna, shisha qog’oz, daraxt, temir, sovun), magnit bilan bolalar yoshiga mos eksperimentlar - amaliy tajribalar tanlash va tashkil etish.

Maktabgacha ta’lim muassasalari – O’zbekiston Respublikasidagi ta’lim muassalarining turi bo’lib, turli yo’nalishdagi maktabgacha bo’lgan davrdagi umumta’lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta’lim muassasalari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan bolalarni tarbiyalashni, o’qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog’lomlashtirishni ta’minlaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasini tashkil etish tartibi, faoliyatini tashkil etish va butlash, hamda maktabgacha ta’lim muassasasining mol-mulki va pul mablag’lari, javobgarligi, boshqaruvi va ta’lim jarayoni qatnashchilari to’g’risidagi kerakli ma’lumotlarni “O’zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to’g’risida Nizom” dan olishinigiz mumkin. O’zbekistonda maktabgacha ta’lim muassalarining zamonaviy tizimi, maktabgacha ta’lim muassasalari, faoliyat yo’nalishiga ko’ra, quyidagi turlarga bo’linadi:

Bolalar yaslisi, bolalar yasli bog’chasi, bolalar bog’chasi, uydagi bolalar bog’chasi (mustaqil muassasa yoki filial sifatida).

- Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim muassasasi (bolalar bog'chasi-maktab).

- Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta'lim muassasalari.

- Tarbiya jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagi bolalar bog'chasi.

- Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.

- Birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).

Maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning bo'lish davomiyligi davlatning maktabgacha ta'lim sifat va darajasiga bo'lgan talablari, nizom, maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda ta'sischilar tomonidan belgilanadi.Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilingan bo'lib, u yerga bolalar davlatning joylardagi vakolatli ta'limni boshqarish va sog'liqni saqlash organlari tarafidan tashkil qilingan ruhiy-tibbiy pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish tartibi, mol-mulki va pul mablag'lari,maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida o'quv-ta'lim va sog'lomlashtirish jarayonini tashkil qilish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari va maxsus maktabgacha ta'lim muassasasining boshqaruvi haqidagi to'liq ma'lumotlar "Maxsus davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom" da ko'rsatilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy maqsadlariMaktabgacha ta'lim, olinish shakli va usullaridan qat'iy nazar, quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayri tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman tillarida olib boriladi.

- Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim muassasasi (bolalar bog'chasi-maktab).

- Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta'lim muassasalari.

- Tarbiya jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagi bolalar bog'chasi.

- Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.

Birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).

- Bolalarni maktabda o'qishga maqsadli va tizimli tayyorlash;
- Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish;
- Bolalarni milliy, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;
- Bolalarda yuqori ma'naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish;
- Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini mustahkamlash.

Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman tillarida olib boriladi.

### **Xulosa.**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni maktab ta'limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo'lib ulg'ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlariga sodiq bo'lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [qarori](#).
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan "Davlat talablari". 2018-yil 3-iyul, ro'yxat raqami 3032.
4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.
6. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'zb Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.